XALQ DEPUTATLARI VOBKENT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 22-avgust VII-16-100-2-33-K/25 Vobkent tumani

Vobkent tumani mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yillik ijrosi hamda daromadlar va xarajatlar rejasiga kiritilgan oʻzgartirishlar toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27-moddasiga asosan tuman mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yilli ijrosi hamda daromadlari va xarajatlari rejasiga oʻzgartirishlar kiritish yuzasidan tuman hokimining birinchi oʻrinbosari — tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻining hisobotini tasdiqlash uchun Xalq deputatlari tuman Kengashi muhokamasiga kiritilgan.

Mazkur hisob-kitoblarga koʻra, 2025-yil I yarim yillikda tuman mahalliy byudjetining daromadlari **61,7 mlrd**.soʻmni tashkil etib, ijrosi **100,6 foiz**ga taʼminlangan.

Hisobot davrida tuman mahalliy byudjeti xarajatlari jami **82,2 mlrd**.soʻm, shundan, tumandagi ijtimoiy soha xarajatlari **32,1 mlrd**.soʻm yoki **39,1 foiz**ni tashkil etmoqda.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 143 va 147-moddalarida byudjet ijrosi jarayonida 2025-yil I yarim yillikda mahalliy byudjet daromadlari prognoz koʻrsatkichlari hamda byudjet parametrlari doirasida xarajatlar rejasiga tegishli oʻzgartirishlar kiritish nazarda tutilgan.

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 25-fevraldagi 03-03/1-4456-son yigʻilish bayonnomasi ijrosini tumanda oʻz vaqtida taʼminlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda, mahalliy byudjetlardagi past samarali xarajatlar maqbullashtirilgan va byudjet tashkilotlarining ish haqi va ijtimoiy soliq toʻlovlari boʻyicha yil yakunigacha kutilayotgan xarajatlarni qoplashga yoʻnaltirish belgilangan.

Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27 va 126-moddalariga asosan tuman mahalliy byudjetining 2025-yil I-yarim yillik ijrosi hamda daromadlar va xarajatlar rejasiga oʻzgartirishlar kiritish yuzasidan tuman hokimining birinchi oʻrinbosari — tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi M.Malikovning hisobotni tinglab, yuqorida bayon etilganlarga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 6-va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Vobkent tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tuman hokimining birinchi oʻrinbosari — tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi M.Malikovning Vobkent tumani mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yillik

ijrosi hamda daromadlar va xarajatlar rejasiga kiritilgan oʻzgartirishlar toʻgʻrisidagi hisoboti maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

- tuman mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yillik daromadlar ijrosi boʻyicha asosiy koʻrsatkichlar 1-ilovaga;

- tuman mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yillik xarajatlari ijrosi boʻyicha asosiy koʻrsatkichlar 2-ilovaga;

- tuman mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yillik davomida daromadlar rejasiga kiritilgan oʻzgarishlar boʻyicha asosiy koʻrsatkichlar 3-ilovaga;

- tuman mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yillik xarajatlar rejasiga kiritilgan oʻzgarishlar boʻyicha asosiy koʻrsatkichlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Xolmurodov)ga:

- 2025-yil uchun belgilangan daromadlar prognoz reja koʻrsatkichlari barcha soliq turlari kesimida toʻliq bajarilishini taʼminlash choralarini koʻrish:

- byudjet daromadlari bazasini kengaytirish hamda mahalliy byudjetga qoʻshimcha soliq tushirish manbalarini aniqlash va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni taʼminlash topshirilsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi hamda tuman Gʻaznachilik xizmati:

- tuman mahalliy byudjet parametrlarida koʻzda tutilgan xarajatlarni, xususan birinchi darajali toʻlovlarni oʻz vaqtida moliyalashtirilishini taʼminlash;

- byudjet mablagʻlaridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda byudjet intizomiga qatʼiy rioya etilishi ustidan nazorat oʻrnatilishini taʼminlasin.

5. Tuman hokimining birinchi oʻrinbosari — tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi M.Malikovga hamda tumandagi tegishli byudjet tashkilotlari bilan birgalikda:

- tuman mahalliy byudjetidan ajratilgan mablagʻlarning Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari toʻgʻrisida”gi Qonuni talablari asosida belgilangan tartibda maqsadli sarflanishini;

- infratuzilma obyektlarida belgilangan tadbirlarni oʻz vaqtida moliyalashtirish va foydalanishga topshirilishini taʼminlasin.

6. Mazkur qarorning ijrosini taʼminlash tuman hokimining moliya-iqtisod va kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha birinchi oʻrinbosari — tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi M.Malikovga, ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish boʻyicha doimiy komissiyasi (A.Qurbonov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

OSTONOV AKMAL ANVAROVICH

Xalq deputatlari Vobkent tumani
Kengashining
2025-yil 22-avgustdagi
VII-16-100-2-33-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Vobkent tumani mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yillik daromadlar ijrosi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar

mln.so‘mda

№	Daromadlar turlari nomi	Reja	Ijro	Farqi (+,-)	Ijrosi, foizda
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i			0.0	0.0%
2.	Aylanmadan olinadigan soliq	5 224.0	5 285.3	61.3	101.2%
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	23 852.7	22 319.5	-1 533.2	93.6%
4.	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	568.0	518.5	-49.5	91.3%
5.	Oxirigi iste’molchiga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi	10 357.0	9 750.3	-606.7	94.1%
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 912.0	1 580.0	-332.0	82.6%
7.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 872.0	4 874.5	1 002.5	125.9%
8.	Yuridik shaxslar yer solig‘i	5 279.0	6 296.2	1 017.2	119.3%
9.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8 607.0	8 944.2	337.2	103.9%
10.	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0.0	0.5	0.5	0.0%
11.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq *	933.0	780.6	-152.4	83.7%
12.	Davlat boji			0.0	0.0%
13.	Jarimalar		815.2	815.2	0.0%
14.	Ijara to‘lovlari	46.0	34.7	-11.3	75.5%
15.	Dividendlar	716.0	40.0	-676.0	0.0%
16.	Yig‘imlar			0.0	0.0%
17.	Boshqa tushumlar		486.7	486.7	0.0%
	Daromadlar jami:	**61 366.7**	**61 726.1**	**359.4**	**100.6%**

** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari qarorlariga asosan qishloq xo‘jaligi maqsadlarida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasining yilllik prognozini 40 foizga oshirilganligi inobatga olingan.*

Shuningdek, Xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining bidirishnomasi asosida mahalliy byudjetga tushumlardan kelib chiqib, soliq turlari bo‘yicha reja ko‘rsatkichlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgan.

Xalq deputatlari Vobkent tumani
Kengashining
2025-yil 22-avgustdagi
VII-16-100-2-33-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Vobkent tumani mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yillik xarajatlari ijrosi boʻyicha asosiy koʻrsatkichlar

mln.soʻmda

№	Hududiy byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilari nomi	Reja	Ijro	Farqi (+,-)	Ijrosi, foizda
	Vobkent tumani boʻyicha jami	**88 362.8**	**82 239.5**	**-6 123.4**	**93.1%**
1.	Maktabgacha va maktab taʼlim boʻlimi	23 992.6	23 445.1	-547.5	97.7%
2.	Madaniyat boʻlimi	1 862.4	1 762.4	-99.975	94.6%
3.	Cport boʻlimi	4 938.5	4 871.1	-67.4	98.6%
4.	Suv xoʻjaligi tashkilotlari	655.0	655.0	0.0	100.0%
5.	Bandlik boʻlimi	1 438.9	1 282.6	-156.3	89.1%
6.	Iqtisodiyot va moliya boʻlimi	1 742.9	1 542.5	-200.4	88.5%
7.	Tuman hokimligiga va unga buysunuvchi muassasalar	6 112.5	5 904.2	-208.3	96.6%
8.	Prezident Admistratsiyasiga qarashli tashkilotlar	818.5	502.6	-315.9	61.4%
9.	Kengash kotibiyati	174.1	139.4	-34.6	80.1%
10.	Yoshlar ishlari agentligi boʻlimi	3 027.5	2 928.6	-98.9	96.7%
11.	Mahalla byudjeti	1 571.0	907.9	-663.1	57.8%
12.	Obodonlashtirish boshqarmasi	17 060.6	14 082.2	-2 978.4	82.5%
13.	Veterenariya boʻlimi va labaratoriyasi	1 776.9	1 735.3	-41.7	97.7%
14.	Fermerlar kengashi buggalteriya markazi	383.1	373.0	-10.0	97.4%
15	Musiqa maktabi	2 095.7	2 059.5	-36.2	98.3%
16.	Boshqa xajatlar(open byudjet,zaxira jamgʻarmasi va boka qoʻshimchalar)	20 712.7	20 048.1	-664.6	96.8%
-	shundan, "Fuqarolar tashabbusi" jamgʻarmasiga oʻtkazilgan mablagʻlar	18 708.0	18 708.0	0.0	100.0%

** Xalq deputatlari tuman Kengashi qarorlari, tuman hokimining tegishli farmoyishlari hamda tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimining bildirishnomasiga asosan kiritilgan oʻzgartirishlar.*

Xalq deputatlari Vobkent tumani
Kengashining
2025-yil 22-avgustdagi
VII-16-100-2-33-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Vobkent tumani mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yillik davomida daromadlar rejasiga kiritilgan oʻzgarishlar boʻyicha asosiy koʻrsatkichlar

mln.soʻmda

№	Daromadlar turlari nomi	Tasdiqlangan reja	Oʻzgarti-rishlar *	Aniqlangan reja
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0.0		0.0
2.	Aylanmadan olinadigan soliq	5 463.0	-239.0	5 224.0
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	22 219.4	1 633.3	23 852.7
4.	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	614.0	-46.0	568.0
5.	Oxirigi iste’molchiga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi	8 186.0	2 171.0	10 357.0
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 027.0	-1 115.0	1 912.0
7.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 965.0	-93.0	3 872.0
8.	Yuridik shaxslar yer solig‘i	8 880.0	-3 601.0	5 279.0
9.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7 635.0	972.0	8 607.0
10.	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0.0	0.0	0.0
11.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq *	1 987.4	-1 054.4	933.0
12.	Davlat boji	0.0		0.0
13.	Jarimalar	0.0		0.0
14.	Ijara to‘lovlari	38.0	8.0	46.0
15.	Dividendlar	1 432.0	-716.0	716.0
16.	Yig‘imlar	0.0		0.0
17.	Boshqa tushumlar	0.0		0.0
	Daromadlar jami	**63 446.8**	**-2 080.1**	**61 366.7**

** Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Xalq deputatlari tuman Kengashi qarorlariga asosan qishloq xoʻjaligi maqsadlarida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasining yillik prognozini 40 foizga oshirilganligi inobatga olingan.*

Shuningdek, Xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining bildirishnomasi asosida mahalliy byudjetga tushumlardan kelib chiqib, soliq turlari boʻyicha reja koʻrsatkichlarga tegishli oʻzgartirishlar kiritilgan.

Xalq deputatlari Vobkent tumani
Kengashining
2025-yil 22-avgustdagi
VII-16-100-2-33-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Vobkent tumani mahalliy byudjetining 2025-yil I yarim yillik xarajatlar rejasiga kiritilgan oʻzgarishlar boʻyicha asosiy koʻrsatkichlar

mln.soʻmda

№	Hududiy byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilari nomi	Tasdiqlangan reja	Oʻzgarti-rishlar *	Aniqlangan reja
	Vobkent tumani boʻyicha jami	**74 054.4**	**14 308.6**	**88 362.8**
1.	Maktabgacha va maktab taʼlim boʻlimi	17 867.6	6 125.0	23 992.6
2.	Madaniyat boʻlimi	1 773.4	89.0	1 862.4
3.	Cport boʻlimi	4 929.3	9.3	4 938.5
4.	Suv xoʻjaligi tashkilotlari	1 080.0	-425.0	655.0
5.	Bandlik boʻlimi	1 358.5	80.4	1 438.9
6.	Iqtisodiyot va moliya boʻlimi	1 488.6	254.3	1 742.9
7.	Tuman hokimligiga va unga buysunuvchi muassasalar	5 191.7	920.8	6 112.5
8.	Prezident Admistratsiyasiga qarashli tashkilotlar	796.0	22.50	818.5
9.	Kengash kotibiyati	151.5	22.54	174.1
10.	Yoshlar ishlari agentligi boʻlimi	2 752.5	275.0	3 027.5
11.	Mahalla byudjeti	1 000.0	571.0	1 571.0
12.	Obodonlashtirish boshqarmasi	16 813.9	246.8	17 060.6
13.	Veterenariya boʻlimi va labaratoriyasi	1 863.1	-86.1	1 776.9
14.	Fermerlar kengashi buggalteriya markazi	392.9	-9.9	383.1
15.	Musiqa maktabi	1 855.7	240.0	2 095.7
16.	Boshqa xajatlar(open byudjet,zaxira jamgʻarmasi va boka qoʻshimchalar)	14 739.7	5 973.0	20 712.7
-	shundan, "Fuqarolar tashabbusi" jamgʻarmasiga oʻtkazilgan mablagʻlar	14 022.0	4 686.0	18 708.0

** Xalq deputatlari tuman Kengashi qarorlari, tuman hokimining tegishli farmoyishlari hamda tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimining bildirishnomasiga asosan kiritilgan oʻzgartirishlar.*